

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

<i>Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi</i> XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH	87-91
--	-------

<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna</i> J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92-96
---	-------

<i>Miraxmedova Zilola Erkinovna</i> EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI	97-101
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Абдуолимов Уринбой Худобердиевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ	102-110
--	---------

<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ	111-119
---	---------

<i>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li</i> OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)	120-124
--	---------

<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT	125-135
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Rashidova Oynisa Xusniddin qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	136-140
--	---------

<i>Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi</i> DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH	141-146
---	---------

<i>Ганнаров Захид Ганнарович</i> ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ ПЛАВАНИИ	147-153
---	---------

<i>Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna</i> TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI	154-159
---	---------

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 10 July 2024**Accepted:** 15 July 2024**Published:** 25 July 2024*Article / Original Paper***FROM THE HISTORY OF CHIGATOY ULUS MANAGEMENT****Ulashova Sevinch Ulash qizi**

Associate Professor of Tashkent University of Applied Sciences, PhD

sevinch.ulashova@bk.ru)

Abstract. In the article, it is researched that after conquering the Khorezmshah-Anushtegini state, Genghis Khan handed over the management of Movarunnahr and its surrounding borders to Mahmud Yalavoch, and the Yalavoch family ruled the area for more than eighty years. Also, the reasons why power was left in the hands of the Yalavochs even after Mahmud Tarobi's rebellion in 1238, the relations of the Yalavochs with the Chigatai khans and the Mongol khans are explained.

Key words: Genghis Khan, Chigatay dynasty, Mahmud Yalavach, Oktaykhan, the great qoon, Yalavachs, Maverannahr, dual power.

CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN**Ulashova Sevinch Ulash qizi**

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada Chingizxon Xorazmshoh-Anushteginiylar davlatini bosib olgandan keyin Movarounnahr va uning atroflaridagi sarhadlarning boshqaruvini Mahmud Yalavochga topshirgani va Yalavochlar xonadoni hududni sakson yildan ortiqroq muddatda boshqargani tadqiq etilgan. Shuningdek, 1238 yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg'olonidan keyin ham hokimiyatning Yalavochlar qo'lida qoldirilish sabablari, Yalavochlarning Chig'atoy xonlari va mo'g'ul qoonlari bilan munosabatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Chingizxon, Chig'atoy ulusi, Mahmud Yalavoch, O'qtoyxon, ulug' qoon, Yalavochlar, Movarounnahr, qo'sh hokimiyatchilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N01>

Kirish. 1224 yil Chingizxon imperiyasi sarhadlarini o'g'illariga bo'lib bergandan so'ng, yaxlit imperiya o'rnida to'rtta davlat tashkil topdi. Dastlabki yillarda barcha davlatlar ulug' qoonlikka bo'ysunuvchi uluslar shaklida edi. Ammo, O'qtoy vafotidan keyingi ulug' qoonlar davrida Jo'ji, Tuli meros olgan uluslar deyarli mustaqil boshqaruvga o'tishdi. Chig'atoy ulusida esa avval boshdan hududiy yaxlitlik bo'lgani holda, ma'muriy jihatdan qo'sh hokimiyatchilik yuzaga keltirildi. Bu Chingizxon davridan boshlangan Yalavochlar boshqaruvi bilan bog'liq edi. Yalavochlarning ulus hukmdorlariga emas, to'g'ridan-to'g'ri ulug' qoonlarga hisobdorligi, ularni tayinlash yoki mansabidan chetlashtirish Chig'atoy xonlari vakolatlariga kirmasligi ulus rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, Chig'atoy ulusi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, harbiy jihatdan

boshqa uluslardan ancha orqada qoldi. Chig'atoy ulusi ma'muriy boshqaruvidagi qo'sh hokimiyatchilik 1306 yilga qadar davom etdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Maqolada XIII-XIV asrlardagi forsiy va arabiy manbalardagi Chig'atoy ulusida Yalavochlar boshqaruviga doir ma'lumotlar tahlil qilindi. Jumladan, Juvayniyning "Tarixi Jahonkushoy", Rashididdinning "Jome at-tavorix", Jamol Qarshiyning "Mulhaqot us-suroh" kabi asarlar shular jumlasidandir. Shuningdek, maqolada xolislik tamoyili asosida tarixiy taqqoslash, xronologik, retrospektiv, tanqidiy tahlil qilish metodlari yordamida xulosalar chiqarildi.

Muhokama. Ma'lumki, Chingizxon o'g'illariga butun imperiyasi hududini taqsimlab berganda, Chig'atoyga Qoshg'ar, Yettisuv va Movarounnahr tekkan edi [3; B. 31-32.]. Shuningdek, boshqa uluslar qatorida Chig'atoy ulusini ham sipoh va muhofizlar qo'shini bilan ta'minlab, ma'lum bir urug'-qabilalarni uning hukmiga topshiradi. Manbalarga ko'ra, Chingizxon mamlakatni uluslarga taqsimlaganda to'rtta qabilani mingboshilar boshchiligida Chig'atoy ulusiga yuboradi. Ular ulusning asosiy harbiy tayanchi edi. Manbalar va tadqiqotlarda Chig'atoyga birlashtirilgan qabilalar va mingboshilar xususidagi ma'lumotlar ham turlicha. Xususan, "Mangol-un Niucha Tobchian"ga ko'ra, Chingizxon Chig'atoyga qo'shin taqsim qilganda uning hissasiga Xarachar (Qorachor), Mungge, Idoxudoy, Kokochos ismli mingboshilarni beradi. Ularning orasidan Kokochos Chig'atoyning mushaviri (kotibi) bo'lib barin (bahrin), Xarachar barlos, Mungge jaloyir edi [9; B. 152, 162.]. Ammo Idoxudoyning qabilasi nomi keltirilmagan. Rashididdin Chingizxon Chig'atoyga to'rt mingboshi berganini ta'kidlab, faqatgina barloslardan Barulatay va Qorachor, jaloyirlardan Mungge no'yonning nomini tilga olgan [9; B. 275.]. Ammo Rashididdinning asarida ham biroz chalkashliklar bor. Asarning boshqa joyida yana Chingizxon Chig'atoyga taqsimlagan qo'shin to'g'risida so'z yuritib, barloslardan keyingi harbiy bo'linma Muga no'yon boshchiligidagi qo'ng'irotlar bo'lganini ta'kidlaydi [9; B. 275.]. Muga no'yon aslida avval eslatilgan Mungge no'yon bo'lib, jaloyirlarning yetakchisi edi.

"Muizz al-ansob" da ham bu to'g'rida ma'lumotlar mavjud. Unda Chig'atoy hissasidagi qabilalar va mingboshlardan Qorachor (barlos), Muke va Kutuke (jaloyir), Qishilik (sulduz), kichik Chig'atoy (sunit) va Koshluk no'yonlarning nomi keltirilgan [20; B. 47.]. Chig'atoy ulusida barlos, jaloyir, sulduz qabilalarining mavjudligi haqiqatdir. Ammo sunit etnik guruhining bo'lgani boshqa tarixiy manbalarda uchramaydi. Shunga ko'ra, bu 4-etnik guruh arlotlar bo'lgan deyishga asosimiz bor [9; B. 162-163; 22; II. B. 94.]. Chunki arlotlar mo'g'ullar va keyinchalik Amir Temur va Temuriylar imperiyasida ham faol etnoslardan biri edi [20; B. 31, 32, 39, 55, 69, 83, 115, 141, 149.]. Bundan tashqari Chingizxon Chig'atoyga nayman xalqidan iborat sakkiz ming kishilik qo'shin ham ajratadi [9; B. 162.]. Ko'chib kelgan mingboshilar o'zlari bilan birga oilalari va qabiladoshlarini ham Chig'atoy ulusi hududlariga ko'chirgan. XIII asr birinchi choragida ulusga bir nechta qabilalarning 1-to'lqini kelib joylashgan. XIII asrning 60-yillariga kelib ularning nufuzi 3-4 barobarga ortgan. Rashididdinga ko'ra, Chig'atoy xoni Baroqxon (1266-1271) va uning vorislari davrida jaloyirlar son jihatidan ancha ortib, 3-4 minglik maxsus otliq bo'linmani tashkil qilgan [22; II. B. 99.].

Chingizxon vafotidan so'ng O'qtoy ulug' qoon deb e'lon qilindi. Mo'g'ullar dastlabki yillarda davlatni boshqarish va boshqaruv an'analari to'la ega emasdi. Shuning uchun uluslarda qoon tomonidan tayinlangan va bevosita unga bo'ysunuvchi mahalliy xalqdan bo'lgan noiblar belgilanadi [9; B. 185.]. Ularga soliqlarni yig'ib, o'z vaqtida markazga yetkazish vazifasi yuklatiladi. Chig'atoy ulusiga dastlab Mahmud Yalavoch (1223-1239), undan so'ng uning o'g'li Mas'udbek (1239-1289) noiblik qildi. Yalavochlar uzoq yillar (1223-1306) Movarounnahrda noiblik

vazifasida qoldilar. Ularning markazi Xo'jand shahri edi. Mas'udbek vafotidan so'ng birin-ketin uning o'g'illari Movarounnahrni idora qilishdi. Xususan, Abu Bakr Yalavoch (1289-1298), Sotilmish Yalavoch (1298-1303), Sevinch Yalavoch (1303-1306). Sevinch Yalavoch Qayduxonning o'g'li Choxparxon (1301-1306) yorlig'i bilan hokimiyatga kelib, markazni Xo'janddan Qoshg'arga ko'chirdi¹.

Mazkur davr manbalarida Chig'atoy ulusi tarixi, hukmdorlari, ulusning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va etnik tarixi boshqa uluslar tarixiga qaraganda kam yoritilgan. Mavjud ma'lumotlar aniq va izchil emas va ba'zan biri ikkinchisini inkor etadi. Mo'g'ullar davri manbalari Chig'atoy ulusi xonlari tarixini batafsil qamrab olmagan. Xususan, Juvayniyda Qora Xulaguning xotini Ergana (Organa) xotun hukmronligigacha, Rashididdinda Kebekxongacha Chig'atoylilar tarixi aks etgan. Shomiy Chig'atoy ulusida hukmronlik qilgan xonlarga alohida to'xtalib, ularni 31 ta bo'lganini yozadi.

Natijalar. Chingizxon 1223 yil Movarounnahrni tark etishdan avval asli xorazmlik Mahmud Yalavochni bu shaharlarni ulug' qoon nomidan boshqaruvchi valiy yoki noib sifatida qoldiradi [9; B. 185.]. Mahmud Yalavochning bu vazifasi Chingizxon vafotidan so'ng 1228 yilgi qurultoyda qoon etib tayinlangan O'qtoyxon tomonidan ham tasdiqlandi. Shuningdek, Movarounnahrdan soliq yig'ish ishlari qaytadan tashkil etildi. Mahmud Yalavoch Xo'janddan turib, butun Movarounnahr va unga tutash hududlarni boshqaruv ma'murlari – dorug'alar va soliq yig'uvchilar – tangmachilar yordamida boshqargan [2; B. 86.]. Bu vazifani bajarar ekan, u dastlab faqat Chingizxonga, uning vafotidan keyin esa O'qtoyxonga hisobdor bo'lgan.

Manbalarda Mahmud Yalavoch va umuman Yalavochlar boshqaruvi to'g'risida uzuq-yuluq ma'lumotlar mavjud. Ularning boshqaruvi xususidagi asosiy ma'lumotlardam biri 1238 yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni voqealari jarayonida keltiriladi. Mahmud Yalavoch Buxoro yaqinida ko'tarilgan qo'zg'olonni vaqtida bostirmagani uchun Chig'atoyxon tomonidan o'z vazifasidan olib tashlanadi. Chunki, qo'zg'olonchilar 10 mingdan ortiq mo'g'ul qo'shinini qirib yuborgan edi. Natijada, Mahmud Yalavoch Qoraqurumda turgan ulug' qoon O'qtoyxonning oldiga borib, Chig'atoyxon ustidan arz qiladi. Mahmud Yalavach vaziyatni O'qtoyxonga taqdim etganida, Chig'atoyxon so'roqqa tutilgan va oxir-oqibat uzr so'rashga majbur bo'lgan. O'qtoyxon akasi Chig'atoyni boshqa tanqid qilmaydi. Mahmud Yalavachni esa Pekinga hokim qilib tayinlaydi [9; B. 185.].

Ulug' qoon bu safar Mahmud Yalavochning o'rniga o'g'li Mas'ud Yalavochni ham xuddi shunday vakolat bilan Movarounnahr valiyligiga tayinlaydi [12; B. 85-89.]. Bu holat Mahmud Yalavoch va uning o'g'li Mas'ud Yalavoch orqali Chig'atoy ulusidagi shaharlar ulug' qoonlikka bevosita bog'langanligini yaqqol ko'rsatadi. Shunday qilib, Chig'atoy ulusi davlat va suverenitet tushunchasiga, o'z hududida alohida suverenitet mavjudligiga to'g'ri kelmaydigan g'alati vaziyatga tushib qoldi. Chig'atoy ulusi boshqaruvidagi ushbu holat davlat boshqaruvi avval boshdan ikkiga bo'lib yuborilganini ko'rsatadi. Chig'atoyxonga berilgan o'troq aholi yashovchi asosiy hududlar hisoblangan Movarounnahr boshqaruvi 1223 yildayoq, ya'ni Chig'atoy ulusi tashkil etilishidan avval Mahmud Yalavochga ulug' qoon Chingizxon tomonidan topshirilgan edi. Ya'ni, Movarounnahr noibi to'g'ridan-to'g'ri ulug' qoonga hisob berishi Chingizxon hayotligidayoq belgilab quyilgan edi. Shuning uchun ham Mahmud Tarobiy qo'zg'olonidan keyin Chig'atoyxon Mahmud Yalavochni hokimiyatdan chetlashtirganida ukasi ulug' qoon O'qtoyxon Movarounnahr

¹ Manbada Mas'udbekning o'g'illari Mas'ud I, Mas'ud II, Mas'ud III, Mas'ud IV nomlari bilan ham tilga olingan [18; B. 130.].

boshqaruvi ga tayinlash yoki vazifasidan olib tashlash otasi Chig'izxon davridanoq ulug' qoonning vakolatlariga kirishini ta'kidlaydi. "Yasa" qonunlarining mukkasidan ketgan himoyachisi sifatida tanilgan Chig'atoyxon uchun o'z ulusining kelajagidan ham otasining xohish-istaklari ustun edi. Buni anglagan O'qtoyxon akasi Chig'atoyxonga Chingizxonning farmoni "Yasa" ga tengligini aytadi. Bunga javoban Chig'atoyxon Movarounnahr boshqaruvida Yalavochlar valiyligini tan olib, boshqa bu masalalarga aralashmaydi. Natijada, bu holat keyingi Chig'atoy hukmdorlari davrida ham davom etadi. Chig'atoy ulusi hududi bo'lishiga qaramasdan davlat ichidagi davlatga emas, ulug' qoonlikka bo'ysunuvchi alohida siyosiy tuzilmaning mavjudligi ulus taraqqiyotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Pekinga noib etib tayinlangan Mahmud Yalavoch 1254 yilda vafotiga qadar mazkur vazifada qoldi [18; B. 128.]. Mahmud Yalavochning o'g'li Mas'udbek Movarounnahrda boshqaruvida o'zining zukkoligi va bunyodkorligi bilan muvaffaqiyat qozondi. U 1239-1289-yillarda 50 yil mobaynida Movarounnahrni ulug' qoonlik nomidan boshqardi¹. Juvayniyga ko'ra, Mas'udbek Buxoro shahrida ming nafar toliblar tahsil oladigan madrasa qurdirgan va u "Mas'udiya" madrasasi nomini olgan [2; B. 84-85.]. Vassafning yozishicha, madrasa 1272 yilda Elxoniylar hukmdori Abakaxon qo'shinlari tomonidan Buxoroning boshqa yodgorliklari qatorida vayron qilingan [13; B. 146.]. 1273-yil boshida shahar ozod bo'lgach, Mas'udbek madrasani qayta quradi va 1289 yilda vafot etgach, madrasa yonidagi qabriga dafn etiladi.

Jamol Qarshiy Qoshg'arda ham Mas'udiye madrasasi bo'lgani to'g'risida ma'lumot keltirib, bu madarasa ham Mas'udbek tomonidan qurilganini qayd etadi [18; B. 130.]. Shuningdek, Juzjoniylar, Juvayniylar va Vassaf kabi tarixchilar ham o'z asarlarida Mas'udbek haqida maqtov so'zlarini ishlatgan. Bundan xulosalash kerakki, u o'zi boshqargan Movarounnahrda aholining mehrini qozongan bo'lsa kerak.

Ellik yillik faoliyati davrida faqatgina Olg'uxon (1261-1266) hokimiyatga kelgan yillarda Movarounnahr noinligidan birmuncha vaqt chetlatilib, vakolatlari cheklanadi. 1261-1263 yillarda ulug' qoon Arik Buqa va Chig'atoy hukmdori Olg'uxon o'rtasida bo'lgan o'zaro kurashlar davrida Mas'udbek Qoraqurumga qochib ketadi. So'nggi jangdan keyin Arik Buqa Qora Xulaguning bevasi Organa Xotun va Mas'udbekni Olg'uxon huzuriga sulh tuzish uchun yuboradi. Olg'uxon sulhni qabul qilib, Organa Xotunga turmush qurushni taklif qiladi. Mas'udbekni esa o'zining moliya ishlari bo'yicha maslahatchisi lavozimiga tayinlaydi. Mas'udbek bu lavozimga Baroqxon davrigacha (1266-1271) qoladi.

1269 yilgi Talas vodiysidagi qurultoyda ulug' qoon Qayduxon (1261-1301) va Baroqxon kelishuv imzolaydi va bunga ko'ra, Chig'atoy ulusi yana Olg'uxon davrida erishilgan mustaqilligini yo'qotib, ulug' qoonlik nazoratidagi davlatga aylanib qoladi. Ya'ni 1263 yildan-1269 yilgacha Mas'udbek Movarounnahr valiyi emas, Chig'atoy hukmdorlarining moliya maslahatchisi vazifasida faoliyat yuritadi. 1269 yilgi Talas vodiysidagi qurultoyga ko'ra, ulug' qoon Qayduxon Mas'udbekni qaytadan Movarounnahr noibligiga tasdiqlaydi. Shu bilan Olg'uxon boshlagan mustaqillik harakatlari boy berilib, Chig'atoy ulusi boshqaruvi yana ikkiga bo'linib qoladi. Shuningdek, ulus yana qoonlik nazoratiga o'tadi.

Mas'udbek boshqaruvi davrida ulug' qoonga sodiq bo'lib, uning nomidan o'z vazifasini davom ettirdi. Uning vafotidan so'ng, o'rniga birin-ketin o'g'illari Abubakr Yalavoch (1289-1298), Sotilmish Yalavoch (1298-1303) va Sevinch Yalavoch (1303-1306) hokimiyatga kelishdi. Abubakr va Sotilmish Yalavochlar ulug' qoon Qayduxon Movarounnahr valiyligiga tayinlangan bo'lsa,

¹ Faqatgina Olg'uxon davrida bir muddat uning bu vazifalarni bajarish buyicha vakolatlari olib qo'yiladi.

Sevinch Yalavoch Qayduxonning o'g'li ulug' qoon Choparxon (1301-1306) tomonidan bu vazifaga tasdiqlandi.

Bu davrga kelib Chig'atoy ulusi hukmdori Duvaxon va ulug' qoon Choparxon munosabatlari keskinlashib, 1304 yilda ikki o'rtada urush kelib chiqadi. Birinchi to'qnashuv Samarqand atrofida, ikkinchi to'qnashuv Xo'jand yaqinida bo'lib o'tadi va Choparxon mag'lub bo'lib chekinadi [4; B. 198.].

Ulug' qoon Choparxon mag'lubiyatidan habar topgan Elxoniylar hukmdori O'ljoyti Temur 1305 yilda unga qarshi qo'shin tortadi va Qayduxon tomonidan tashkil qilingan mazkur davlatni butunlay yuq qilib yuboradi [4; B. 19.]. Bu urushlar natijasida Choparxonning Movarounnahrda valiysi bo'lgan Sevinch Yalavochning 1306 yildan keyin ham o'z vazifasini davom ettirganini o'ylash mumkin emas. Manbalarda Sevinch Yalavochning bundan keyingi taqdiri haqida boshqa ma'lumot keltirilmagan.

Shu tariqa, Chig'atoy ulusidagi Yalavochlarning 83 yillik boshqaruviga ham chek qo'yildi va Movarounnahr nazorati Chig'atoy hukmdorlarining qo'lga o'tdi. Natijada, Chig'atoy ulusi hududida qariyb bir asrga yaqin davom etib kelayotgan qo'shhokimiyatchilikka barham berildi va boshqaruv birligiga erishildi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, Chig'atoy ulusi hududi tashkil etilgan dastlabki yillardanoq ma'muriy jihatdan ikkiga bo'lib yuborilgan edi. Bu Chingizxonning 1223 yilda Mahmud Yalavochni to'g'ridan-to'g'ri ulug' qoonga bo'ysunuvchi valiylik lavozimiga tayinlagani bilan bog'liq edi. Natijada, Chig'atoy ulusi tashkil etilgandan keyin ham Movarounnahr boshqaruvi Yalavochlar oilasida qoldi va ular ulus xonlarining emas, ulug' qoonlikning hisobdori sifatida boshqaruvini davom ettirishdi. Ularning tayinlanishi yoki vazifasidan ozod qilinishiga Chig'atoy hukmdorlari aralasholmasdi. Bu Chig'atoy ulusi hududida ma'muriy jihatdan qo'sh hokimiyatchilikni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Hokimiyat boshqaruvining bunday shakli 1306 yilga qadar davom etdi. Chig'atoy ulusi ma'muriy boshqaruvi shu davrdan boshlab ma'muriy birlikka erishdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Alaaddin Ata Melik Cuvaini. Tarih-i Cihangüşa / Çev. M.Oztürk. – Ankara, 1988. – 303 s.
2. Alâeddin Atâ Melik-i Juweynî. Tarikh-i Jahân-Gushâ. I./ ed. Mirza Muhammad al-Qazvini. – London, 1912. – XCIV+124+294 p.;
3. Juvaini 'Ala'-ad-Din 'Ata-Malik. The History of the World Conqueror / Transl. from the text of Mirza Muhammad Qazvini by J.A.Boyle; With a new introduction and bibliography by David O. Morgan. – Manchester: Manchester University Press, 1997. – 763 p.
4. Kadı Ahmed Gaffâr-ı Kazvînî. Târîh-i Cehân-ârâ. Mücteba Minovî neşri. – Tahran, 1343.
5. Kafalı M. Çağatay Hanlığı // Türkler. VIII. – Ankara, 2002. – S. 346-347.
6. Minhâc Cuzecanî. Tabaqât Nâsirî / M. Raverty. – London, 1883-1885. Lvii+1293+xiii p.
7. Minhâc-ı Sirâc El-Cûzcânî. Tabakât-ı Nâsirî (Gazneliler, Selçuklular, Atabeglikler ve Hârezmşâhlar) / Çev: E. Göksu. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2015.
8. Minhâc-ı Sirâc El-Cûzcânî. Tabakât-ı Nâsirî (Moğol İstilasına Dair Kayıtlar)/ Çev: M. Uyar. – İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2016.
9. Mogollarin Gizli tarihi. A. Temir. –Ankara, 1986.
10. Reşidüddin Fazlullah. Câmî u't-tevârih / Çev. I.Aka, M. Ersan. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2013. xvi+336 s.
11. Tabakat-i-Nasiri: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia. By the Maulana, Minhaj-ud-din, Abu-'Umar-i-'Usman / Transl. by H.G. Raverty. I-II. – London, 1881. – 967 p.

12. The Ta'rich-i-Jahan-gusha of 'Ala'u 'd-Din 'Ata Malik-i-Juwayni / Ed. by Mirza Muhammad ibn 'Abdu'l-Wahhab-i-Qazwini. Pt. II, containing the history of Khawarazmshah dynasty. – Leyden-London: Brill, Luzac, 1916. – XVI+22+358 p.; Pt. III, containing the history of Mangu Qa'an, Hulagu and the Isma'ilis. – Leyden-London: Brill, Luzac, 1937. – XX+28+592 p.
13. Vassâf-al-Hadra. Geschichte Vassaf's. – Wien, 1856.
14. Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамол ад-дин Карши. Мулхакат ас-Сурах (извлечение) / Пер. с перс. Р.Ш.Шарафутдиновой // МИСЦА. X-XIX вв. – Т., 1988. – С. 100-127.
15. Бартольд В.В. Джувейни, Ала ад-дин; Извлечение из сочинения Гардизи “Зайн ал-ахбар”. Соч. Т. VIII. – М., 1973. – С. 23-62, 591-595.
16. Джамал ал-Карши. Мулхакат ас-Сурах / Перевод с арабского и примечания А. Саидов. – Душанбе: Ирфон, 2006. – 268 с.
17. Джамал-ал-Карши. Ал-Мулхакат-би-с-сурах // История Казахстана в персидских источниках. Т. 1. Отв. ред. А.К. Муминов. Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, В.В. Аминова. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005.
18. Джамал-ал-Карши. Ал-Мулхакат-би-с-сурах // История Казахстана в персидских источниках. Т. 1. Отв. ред. А.К. Муминов. Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, В.В. Аминова. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – 416 с.
19. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи). / Турк тилидан Назарбек Раҳим таржимаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. – 504 б.
20. Му'изз ал-ансāб (прославляющее генеалогии) // История Казахстана в персидских источниках. Т. III. Отв. ред. А.К. Муминов. Введение, перевод с персидского языка, примечания, подготовка факсимиле к изданию Ш.Х. Вохидова. Сост. указ. У.А. Утепбергеновой. – Алматы: Дайк-Пресс, 2006. – 672 с.
21. Мэн-да бей-лу (“Полное описание монголо-татар”) / Пер. с кит. Н.Ц. Мункуева. – М.: Наука, 1975. – 286 с.
22. Рашид ад-дин. Сборник летописей. Т. I. кн. 1 / Пер. с перс. Л.А. Хетагурова. – М.-Л., 1952. – 222 с.; Т. I. кн. 2 / Пер. с перс. О.И. Смирновой. – М.-Л., 1952. – 316 с.; Т. II / Пер. с перс. Ю.П. Верховского. – М.-Л., 1960. – 248 с.
23. Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норқулов ва М. Ҳасанийлар тарж. – Т.: Чўлпон, 1994. – 352 б.
24. Утемиш-хаджи. Чингиз-наме / Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Комментарии и указатели М.Х. Абусейтовой. – Алма-Ата: Гылим, 1992. – 296 с.
25. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Перевод, предисловие, примечания и указатели Д.Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – 346 с.
26. Шариф Мухаммад Мансур Мубаракшах. Адаб ал-харб ва-ш-шуджаат (Правила ведения войны и мужество) / Пер. с классич. (перс. языка), предисл. и примеч. Дж. Наджмутдиновой и С. Шохуморова. – Душанбе, 1997. – 230 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).